

**ANDIJON DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/29.12.2022.Fil.156.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

ANDIJON DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI

KURBONOVA MARGUBA SOTVOLDIYEVNA

**BIR NECHA SOMATIK KOMPONENTLI FRAZEOLOGIK
BIRLIKLARNING KOGNITIV-SEMANTIK
VA LINGVOKULTUROLOGIK XUSUSIYATLARI
(ingliz va o‘zbek tillari misolida)**

**10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik
va tarjimashunoslik**

**FILOLOGIYA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on
philological sciences**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
филологическим наукам**

Kurbonova Marguba Sotvoldiyevna

Bir necha somatik komponentli frazeologik birliklarning kognitiv-semantik va lingvokulturologik xususiyatlari (ingliz va o‘zbek tillari misolida) 3

Kurbonova Marguba Sotvoldievna

Cognitive – semantic and linguocultural characteristics of phraseological units with several somatic components (on the example of English and Uzbek languages) .. 23

Курбонова Маргуба Сотволдиевна

Когнитивно – семантические и лингвокультурологические характеристики фразеологизмов с несколькими соматическими компонентами (на примере английского, узбекского языков)..... 43

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

List of published works

Список опубликованных работ..... 48

**ANDIJON DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/29.12.2022.Fil.156.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

ANDIJON DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI

KURBONOVA MARGUBA SOTVOLDIYEVNA

**BIR NECHA SOMATIK KOMPONENTLI FRAZEOLOGIK
BIRLIKLARNING KOGNITIV-SEMANTIK
VA LINGVOKULTUROLOGIK XUSUSIYATLARI
(ingliz va o‘zbek tillari misolida)**

**10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik
va tarjimashunoslik**

**FILOLOGIYA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.4.PhD/Fil3512 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Andijon davlat chet tillar institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasi (www.adchti.uz) hamda “Ziyonet” axborot-ta’lim portalida-www.ziyonet.uz manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Abduvaliyev Maxamatjon Arabovich
filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Xoshimova Dildora Madaminovna
filologiya fanlari doktori, professor

Tursunova Nodirabegim Fayzullo qizi
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Yetakchi tashkilot:

Namangan davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Andijon davlat chet tillari instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/29.12.2022.Fil.156.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil “_____” _____ kuni soat _____ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 170100, Andijon shahri, Bobur shohko‘chasi, 5-uy, Tel: (74) 223-42-76, faks: (74) 223-42-76, e-mail: asifl@edu.uz).

Dissertatsiya bilan Andijon davlat chet tillari institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (____-raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 170100, Andijon shahri, Bobur shohko‘chasi, 5-uy. Tel.: (99874) 223-42-76).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil “_____” _____ kuni tarqatildi.
(2025-yil “_____” _____ dagi № _____ raqamli reyestr bayonnomasi).

D.A.Rustamov

Ilmiy daraja beruvchi Ilmiy kengash
raisi, filologiya.fanlari doktori, professor

A.Dj.Atboyev

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash
ilmiy kotibi, filologiya fanlari bo‘yicha
falsafa doktori (PhD),dotsent

M.I.Umarxodjayev

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, filologiya
fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligi rivojining bugungi pallasida amalga oshirilayotgan lingvistik tadqiqotlarning aksariyatida ma’lum xalqning milliy o‘ziga xosligi bilan bog‘liq bo‘lgan til hodisalarini aniqlash, ularni chuqur va atroflicha tahlil etish tendensiyasi kuzatilmoqda. Bunday tadqiqotlarning diqqat markazida frazeologik birliklar, xususan, tarkibida milliy markerlangan komponent mavjud bo‘lgan turg‘un iboralar turadi. Shu nuqtayi nazardan somatik komponentli, asosan, bir necha somatik komponentli frazeologik birliklarni tadqiq etish va ularning milliy-madaniy jihatlarini aniqlash, tilshunoslikda munozaralarga sabab bo‘lib kelayotgan somatik komponentli FBlar tabiati, ularning frazeologik ma’no ifodasidagi vazifasi, somatizmlarning semantik maqomi, somatik komponentli frazeologizmlar korpusida milliy va internatsional kategoriyalar munosabati kabilar zamonaviy tilshunoslikda dolzarb hisoblanadi.

Dunyo tilshunosligida bir necha somatik komponentli FBlar semantikasida milliy-madaniy semalarni ajratish, tarkibida milliy madaniyat haqidagi axborot mavjudligi nuqtayi nazaridan tahlil qilish, ulardagi farqli xususiyatlarni namoyon bo‘lishi, bunda xalq ruhiyati, til egalarida uning turmush tarzi bilan bog‘liq bo‘lgan ijtimoiy, tabiiy jarayonlar va uni o‘rab turgan narsa-hodisalar borasida paydo bo‘luvchi turli assotsiatsiyalarni tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, frazeologizmlarning milliy-madaniy, lingvo-struktur va funksional-pragmatik o‘ziga xosligining ikki xil interpretatsiyasi mavjud bo‘lib, ulardan biri til egalari milliy ruhi, tildagi lisoniy birliklarning milliy markerlanganligi bilan bog‘liq holda aniqlansa, ikkinchisi, frazeologizmlarning milliy-madaniy xususiyatlari unga qarindosh, yoki ko‘pincha qarindosh bo‘lmagan tillar bilan qiyoslanganda namoyon bo‘ladi.

Mamlakatimizda bugunga kelib, frazeologizmlarning ikkinchi interpretatsiyasi yo‘nalishida bajarilayotgan ishlarning salmog‘i kengaymoqda. Ingliz va o‘zbek tillaridagi bir necha somatik komponentli FBlar monografik tarzda o‘rganilmaganligi hamda milliy va chet tillarda milliy-madaniy sema va pragmatik ma’no tashuvchi ikki va undan ortiq somatizimli FBlar, paremiyalar, aforizmlar haqidagi bilimlarni yanada kengaytirish zaruriyati paydo bo‘lganligi, shu bilan birga, pedagog kadrlarda chet tili tarixi, madaniyati, qadriyatlarini, xulq-atvori, mentaliteti borasidagi bilimlarni shakllantirish hamda og‘zaki va yozma tarjima turlariga bo‘lgan ehtiyojning keskin ortganligi bilan bog‘liq deyish mumkin. Aynan shu omillar tadqiqot ishi mavzusi va tahlilga tortilgan qator masalalarning dolzarbligidan dalolat beradi. Prezident Sh.M.Mirziyoyevning “...dunyoda ilm-fan sohasidagi yutuqlar aynan fundamental tadqiqotlar yo‘nalishida qo‘lga kiritilgani tasodifiy emas”¹ligi haqidagi fikrlari bu boradagi tadqiqot ko‘lami kengligini ko‘rsatadi. Bunday tadqiqotlar ko‘plab munozarali bo‘lgan masalalarni tadqiq etishni taqozo etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-sentabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish

¹ Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017. – 171b.

konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni, 2012-yil 10-dekabrda PQ-1875-son "Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2017-yil 20-aprelda PQ-2909-son "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2018-yil 5-iyunda PQ-3775-son "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari hamda boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi².

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashtirilgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Dunyo tilshunosligida umumiy frazeologiyaning nazariy va amaliy masalalari F.Vakk, Yu.R.Solodub, A.D.Rayxshteyn, A.A.Potebnya, V.V.Vinogradov, A.V.Kunin, N.N.Amasova, A.M.Babkin, V.L.Arhangelskiy, I.I.Chernyasheva, I.V.Arnold, N.M.Shanskiy, Sh.Rahmatullayev, M.I.Umarxo'jayev, A.E.Mamatov, A.Isayev, M.Xusainov kabilarning ilmiy tadqiqotlarida o'z aksini topgan. Aynan somatik komponentli FBlar tavsifi va tasnifiga aloqador masalalar F.Vakk, E.M.Mardokovich, A.V.Divo, R.M.Vayntraub, A.A.Sedova, S.G.Alekseyeva, N.N.Kirillova, G.A.Bagautdinova, A.V.Projilov, A.V.Kunitskaya, N.I.Yakimova, T.I.Yegorova bu toifa frazeologizmlarning chog'ishtirma tadqiqi Y.A.Dolgoplov, R.Y.Mugu, A.R.Sakayeva, T.A.Smironova, N.I.Yakimova, M.M.Xalimova, G.M.Umarjonova³

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-sonli "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori.

³ Вакк Ф.А. О соматическое фразеологии в современном эстонском литературном языке: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Таллин, 1964. – 23с; Солодуб Ю.П., Альбрехт Ф.Б. Современный русский язык. Лексика и фразеология современного русского языка. – М.: Флинта-Наука, 2003. – 264с; Виноградов В. В. Современный русский язык: Грамматическое учение о слове. – М.: РСФСР, 1938. – 165 с.; Потебня А.А. Язык и речь. К современной фразеологии языка. – М., 1998. – С. 81-90; Виноградов В. В. Основные понятия русской фразеологии как лингвистической дисциплины // Лексикология и лексикография. Избранные труды. – М.: Наука, 1977. – С. 118-139; Кунин А.В. Курс фразеологии современного английского языка: Учеб. для ин-тов и фак. иностр. яз. – М.: Феникс, 1996. – 12с; Амосова Н.Н. Основы английской фразеологии. – Ленинград: ЛГУ, 1963. – 165с; Бабкин А.М. Русская фразеология, ее развитие и источники. – Ленинград: Наука, 1970. – 261с; Архангельский В.Л. Устойчивые фразы в современном русском языке. Основы теории устойчивых фраз и проблемы общей фразеологии. – Ростов н/Д.: Ростовского Унив., 1964. – 60с; Чернышева И. И. Фразеология современного немецкого языка. – М.: Высшая школа, 1970. – 199с ; Арнольд И.В. Основы научных исследований в лингвистике: Учеб. пособие. – М.: Высш. шк., 1991. – 140с; Шанский Н.М. Фразеология современного русского языка. 4-е изд., испр. и доп. – СПб.: Специальная литература, 1996. – 192с; Rahmatullayev Sh. O'zbek tili frazeologiyasining ba'zi masalalari. – Toshkent: Fan, 1966. – 55b; Umarходжаев М. Очерки по современной фразеологии: Монография. – Тошкент: Фан, 1977. – 27с; Исаев А. Соматические фразеологизмы узбекского языка: Дисс...канд. филол. наук. – Ташкент, 1976. – 196с; Umarjonova G.M. Nemis va o'zbek tillaridagi "hand" – "qo'l" komponentli frazeologizmlarning chog'ishtirma tahlili: Filol. fan. fals. d-ri ...diss. avtoref. – Farg'ona, 2022. – 53b ; Azamov O.B. Nemis va o'zbek tillarida zoonimik komponentli frazeologik birliklarning struktural-semantik chog'ishtirma tahlili (o'quv lug'at tamoyillari): Filol. fan. fals. d-ri ... diss. avtoref. – Andijon, 2023. – 50b; Halimova M.M. Ingliz va o'zbek tillarida olamning lisoniy manzarasi voqelashuvida "head/bosh" somatizmi: Filol. fan. fals. d-ri ...diss. avtoref. – Andijon, 2023. – 60 b;

kabilarning ishlarida amalga oshirilgan. Bunday tadqiqotlarning asosiy obyekti sifatida bosh, ko‘z, yurak, qo‘l somatizmlari tanlanib, ularning struktur, semantik jihatlari, tillararo tipologik o‘xshash va farqli xususiyatlari o‘rganilgan va bu borada ma’lum natijalarga erishilgan.

Tadqiqot ishi yuqoridagi ilmiy ishlanmalardan quyidagi jihatlari bilan farq qiladi: 1) ingliz va o‘zbek tillaridagi bir necha somatik komponentli FBlar birinchi marotaba monografik tarzda tadqiq etilayotganligida; 2) chog‘ishtirilayotgan tillarda bir necha somatik komponentli Fblarning strukturali, semantik va grammatik jihatlari ochib berilganligida; 3) ingliz va o‘zbek tillarida tadqiq etilayotgan FBlarning lingvokulturologik aspektiga xos o‘xshash va farqli xususiyatlari aniqlanganida; 4) bir necha somatik komponentli FBlarning kommunikativ-pragmatik (intensional) tiplari ko‘rsatib berilganida; 5) milliy-madaniy va pragmatik ma’no tashuvchi bir necha somatik komponentli Fblarning tarjima tilida muqobilligini ta’minlovchi tarjima usullari ko‘rsatib berilganligida va boshqalar.

Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilgan Oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya Andijon davlat chet tillar instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq “Kognitiv tilshunoslikda konsept muammolarini o‘rganish” mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi ingliz va o‘zbek tillarida bir necha somatik komponentli FBlarning kognitiv-semantik va lingvokulturologik jihatlarni ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

tilshunoslikda bir va bir necha somatik komponentli frazeologik birliklarning o‘rganilish tarixi va u bilan bog‘liq nazariy qarashlarni qiyosan tahlillash, sharhlash va munosabat bildirish;

ingliz va o‘zbek tillarida bir necha somatik komponentli FBlarning tuzilish semantikasi, paradigmaticasi va sintagmatikasidagi umumiy va farqli jihatlar bilan bog‘liq qonuniyatlarni ochib berish;

chog‘ishtirilayotgan tillarda madaniy sema va pragmatik ma’no tashuvchi bir necha somatik komponentli FBlarni tillar umumiy frazeologik fondidan ajratish, tahlillash va tavsiflash;

bir necha somatik komponentli FBlar semantikasi, milliy-madaniy semalari va pragmatik ma’nolarini tarjima tilida qayta yaratishning maqbul usul va metodlarini aniqlash, ularning adekvatligini ta’minlashga qaratilgan tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida ingliz va o‘zbek yozuvchilari asarlari, inglizcha va o‘zbekcha izohli lug‘atlarda uchraydigan bir necha somatik komponentli frazeologizmlar tanlangan.

Tadqiqotning predmetini bir necha somatik komponentli frazeologik birliklar maydonining yadro va periferiya qismlaridan o‘rin olgan birliklarning kognitiv-semantik, struktur-semantik, funksional-stilistik, lingvomadaniy va lingvopragmatik jihatlari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada qiyosiy-chog‘ishtirma, maydoniy yondashuv, kognitiv modellashtirish, transformatsiya, komponent tahlil, distributiv, statistik tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

bir necha somatik komponentli FBlarning simmetrik va assimetrik jihatlari va ular tarkibiga kiruvchi komponentlarning valentlik imkoniyatlari hamda tillararo izomorf va allomorf jihatlar aniqlangan;

o'zbek va ingliz tillarida somatik komponentli FBlarning olam lisoniy manzarasini tashkillashdagi o'rni, maqomi, morfologik va semantik jihatlari ochib berilgan;

bir necha somatik komponentli monosemant va polisemant FBlar semantikasi tarkibiga kiruvchi milliy-madaniy semalar va pragmatik ma'nolarni o'zbek va ingliz tillarda qayta yaratish usul va metodlari aniqlanib, ularning adekvatligini ta'minlash bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan;

o'zbek va ingliz tillarida milliy-madaniy va pragmatik ma'no tashuvchi polikomponentli frazeologik birliklararo intralingvistik va ekstralingvistik omillar ochib berilgan;

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

chog'ishtirilayotgan tillarda bir necha somatik komponentli FBlarning kommunikativ jihatdan relevantligi, har bir tilda bu toifa FBlar milliy va umumiy, tayanch va variativ morfologik strukturaga egaligi, ma'no va polisemant xususiyatga egaligi va ularning ma'nodoshlik, zid ma'nolilik va omonimlik munosabatlariga kirishuvi, sintagmatik planda boshqa leksemalar bilan birikuv imkoniyatlari aniqlandi;

bir necha somatik komponentli FBlarning milliy-madaniy xususiyatlari chog'ishtirma planda ochib berildi;

bir necha somatik komponentli FBlarning kommunikativ-pragmatik tiplari aniqlandi;

ikki yoki undan ortiq somatik komponentli FBlar va ular orqali ifodalangan semantik va pragmatik ma'nolarni tarjima tilida qayta yaratish bo'yicha uslubiy tavsiyalar ishlab chiqildi;

qiyosiy tilshunoslik va chet tillar o'qitish metodikasi, tarjima nazariyasi va amaliyoti uchun muhim bo'lgan tillararo o'xshash va farqli jihatlar aniqlandi.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi Dissertatsiyada tilshunoslikda o'rganilishi kerak bo'lgan muammoning aniq qo'yilgani, foydalanilgan namunalardan va izohlar faktik hamda analitik lisoniy manbalarga asoslangani, ishonchli ilmiy-nazariy manbalardan foydalanilgani, ilmiy xulosalar dalillanganligi, nazariy ma'lumotlar va xulosalarning amaliyotga joriy qilinganligi, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi, keltirilgan tahlillarning amaliyotga joriy etilgani bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Ingliz hamda o'zbek tillarida bir necha somatik komponentli frazeologik birliklarni chog'ishtirish asosida chiqarilgan ilmiy-nazariy xulosalar, chog'ishtirma lingvistik, lingvokulturologiya, lingvopragmatika va zamonaviy leksikologiya, frazeologiya, tarjimashunoslikning nazariy va metodologik asoslari yondashuvi nazariy va amaliy ahamiyatga ega ekanligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati tadqiqot natijalari olingan xulosalardan qiyosiy tipologiya, leksikologiya, lingvokulturologiya, stilistika,

tarjima nazariyasi kabi nazariy fanlar kursi uchun ma'ruza matnlari va seminar materiallari sifatida, leksikografiya amaliyotida inglizcha-o'zbekcha, o'zbekcha-inglizcha lug'atlar tuzishda, shuningdek, til amaliyoti darslarida qo'llanma sifatida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. O'zbek va ingliz tillarida bir necha somatik komponentli frazeologizmlarning antroposentrik paradigma tadqiqi bo'yicha olingan natijalar asosida:

ingliz va o'zbek tillarida bir necha somatik komponentli frazeologik birliklar va ularning struktur-semantik xususiyatlariga doir, shuningdek, ingliz va o'zbek tillarida bir necha somatik komponentli frazeologik birliklarni tizimlashtirish yuzasidan ishlab chiqilgan ilmiy va amaliy xulosalaridan Samarqand davlat chet tillari instituti filologiya fanlari nomzodi, dotsent F.Sh.Ro'ziqulov rahbarligida bajarilgan I-204-4-5 "Ingliz tili mutaxassislik predmetlaridan axborot-kommunikatsion texnologiyalari asosida virtual resurslar yaratish va o'quv jarayoniga joriy etish" nomli loyihasi doirasida foydalanilgan. (Samarqand davlat chet tillari institutining 2023-yil 25-avgustdagi 205/02-son ma'lumotnomasi.) Natijada ingliz tili tili mutaxassislik predmetlaridan axborot-kommunikatsion texnologiyalari asosida virtual resurslar yaratish va o'quv jarayoniga joriy etishning nazariy asoslari, turg'un va erkin so'z birikmasi o'rtasidagi umumiy va xususiylik masalalariga to'xtalib o'tishni ta'minlagan;

oliy ta'lim tizimida o'qituvchi va talabalarning bir necha somatik komponentli frazeologik birliklarning ingliz va o'zbek tillarida metafora, metonimiya sifatida ishlatilishi, somatik frazeologik birliklar asosida shakllangan frazemalar hamda ularning tahlillar natijasida aniqlangan umumiy soni, leksik-grammatik va struktur-semantik kriteriyalar asosida tartib berilganligiga doir ma'lumotlar, shu bilan birga, ingliz va o'zbek tillarining bir necha komponentli somatik frazeologik birliklari asosida o'quv lug'atini tuzish tamoyillari, lug'atning maqsad vazifasi, struktur ko'rinishi, izoh hamda tarjima tamoyillariga doir ma'lumotlardan bahramand bo'lishi, bir necha komponentli frazeologik birliklarning chastotasi, ya'ni ularning muloqotda ishlatilish soni bo'yicha kerakli bilimlardan samarali foydalanishi, shu bilan birga, ularning statistik ma'lumotlar bilan bog'liq bilim va ko'nikmalarni shakllantirish hamda ta'lim tizimi jarayonini mustahkamlash va xalqarolashtirish maqsadida yaratilgan qo'llanmalar, maqolalar, tezislar yozishda yangi yondashuvlar kabi ilmiy xulosalaridan Yevropa Ittifoqi tomonidan Erasmus+dasturining 2016-2018-yillarga mo'ljallangan 561624-EPP-1-2015-UK-EPPKA2-CBHE-SP-ERASMUS+SVNEIMEP: "O'zbekistonda oliy ta'lim tizimi jarayonlarini modernizatsiyalash va xalqarolashtirish" nomli loyihasi doirasida foydalanilgan. (Samarqand davlat chet tillari institutining 2023-yil 25-avgustdagi 204/02-son ma'lumotnomasi.) Natijada loyiha ilmiy dalillar bilan boyitildi, xususan, axborot-kommunikatsion texnologiyalari asosida virtual resurslar yaratish va o'quv jarayoniga joriy etishda bir necha somatik komponentli frazeologik birliklar lingvistik tadqiqot obyekti sifatida olinishi muhim ahamiyat kasb etgan.

bir necha somatik komponentli frazeologik birliklarning kognitiv-semantik va lingvokulturologik xususiyatlari to'g'risidagi ma'lumotlardan O'zbekiston Milliy

teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston” teleradiokanali DM “Madaniy-ma’rifiy va badiiy eshittirishlar” muharririyati tomonidan tayyorlangan “Ta’lim va taraqqiyot”, “O‘zbekiston yoshlari” radioeshittirishlar ssenariysini tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining 2023-yil 6-iyuldagi 04-36-108-son ma’lumotnomasi). Natijada radiotinglovchilar bir necha somatik komponentli frazeologik birliklarning ingliz va o‘zbek xalqlari milliy ongida mavjud arxetip tasavvurlar umumlisoniy va milliy, ijobiy, salbiy va betaraf ekanligi, ularda xalqning intellektual va hayotiy tajribasi, donishmandligi, ma’naviy dunyosi, axloq-odob stereotiplarida o‘z ifodasini topishi kabi xulosalari eshittirishlarning ilmiy asoslarga ega bo‘lishini ta’minlagan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinishi. Tadqiqot ishi mavzusiga oid jami 10 ta maqola nashr qilingan, shulardan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta ilmiy maqola, shulardan, 3 tasi respublika hamda 1 tasi xorijiy jurnallarda nashr qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat bo‘lib, dissertatsiyaning umumiy hajmi 157 sahifani tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dis sertatsiyaning kirish qismida tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti tavsiflangan, uning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishiga mosligi ko‘rsatilgan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Olamning konseptual manzarasi tilning frazeologik manzarasida”** deb nomlanib, olamning lisoniy manzarasi va frazeologik tasviri maqolasi muallifi I.K.Turdiyevaning ta’kidlashicha: har qanday til alohida olam manzarasiga ega va lisoniy shaxs ana shu manzaraga mos ravishda ifodalarning mazmunini tuzishga majburdir. Bunda tilda o‘z aksini topgan insonning olamni o‘ziga xos idroki namoyon bo‘ladi. Til insonning olam haqidagi bilimlarining shakllanishi va mavjud bo‘lishidagi muhim omildir. Inson faoliyat jarayonida obyektiv dunyoni aks ettirar ekan dunyoni bilish natijalarini so‘zda qayd etadi. Olamning lisoniy manzarasi borliq haqidagi obyektiv bilimlarni to‘ldiradi⁴- deb fikrlar keltiradi muallif. Darhaqiqat olamning lisoniy manzarisini ifodalovchi lisoniy shaxs o‘ziga mos ravishda lisoniy ifodalarni mazmuni tuzishga muhtojdir va majburdir, shu sababli ham insonda o‘ziga xos idrok shakllanadi va namoyon bo‘ladi.

Lisoniy shakllarda muhrlangan mazkur bilimlar majmuasi olamning lisoniy manzarasi, deb nomlanadi. Olamning manzarasi (lisoniy ham) tushunchasi

⁴ Turdiyeva I. K. Olamning lisoniy manzarasi va frazeologik tasviri. Eurasian Journal of Academic research. Innovative Academy Research Support Center. Volume 2 Issue 13, December 2022. – 312p.

insonning olam haqidagi tasavvurlarini o'rganish asosida yaratiladi. Olam o'zaro munosabatda bo'lgan inson va muhit bo'lsa, olam manzarasi inson va muhit haqidagi ma'lumotlarni qayta ishlash natijasidir. Agar olamning obrazi bo'linmaydigan yaxlit butunlikni namoyon qilsa, olamning manzarasi dunyo haqidagi turli darajadagi bilimlar majmu ini va uning obyektlariga bo'lgan munosabatni namoyon qiladi. Olamning obrazini to'g'ridan- to'g'ri reflekslar vositasida anglab bo'lmaydi, uni faqat o'ziga xos obrazlarni oz boshidan kechirish orqaligina tushunish mumkin.

M. Xaydegger⁵ning qayd qilishicha, manzara so'zi deganda biron narsaning tasviri haqida tassavur qilamiz, olam manzarasi dunyoning tasvirini emas, balki olamni manzaradek tushunishni ifodalaydi. Haqiqiy borliqni aks ettiruvchi olam manzarasi va olamning lisoniy manzarasi o'rtasida murakkab munosabatlar mavjud bo'ladi, deb fikrlar keltiradi tilshunos olim.

Olam manzarasi makon (yuqori-quyi, o'ng-chap, sharq-g'arb, uzoq-yaqin), zamon (kun-tun, qish-yoz), miqdor va h.k. o'lchovlar vositasida tasavvur etilishi mumkin. Uning shakllanishiga til, an'analar, tabiat va landshaft, ta'lim, tarbiya va boshqa ijtimoiy omillar ta'sir ko'rsatadi. Olamning lisoniy manzarasi olamning maxsus manzaralari (kimyo, fizika va h.k.) bilan bir qatorda bo'la olmaydi, u boshqa manzaralardan oldinda bo'lib, ularni shakllantiradi. Chunki inson dunyoni va o'zini umuminsoniy va milliy tajribaga asoslangan til vositasida angelaydi. Bu o'rinda milliy tajriba tilning barcha darajadagi o'ziga xos xususiyatlarni belgilaydi. Tilning o'ziga xosligi tufayli til egasining ongida muayyan olamning lisoniy manzarasi yuzaga keladi va inson u orqali dunyoni ko'radi⁶.

Mashhur lingvist, frazeologiya sohasining bilimdoni professor A. V. Kunin frazeologiya leksikologiyaning bir qismi emas, balki mustaqil lingvistik fan bo'lishi kerak deb hisoblaydi⁷. Mazkur taniqli rus olimining bu boradagi tasnifining nutqda bajaradigon vazifalariga asoslangan. Bular: nominativ, kommunikativ va undov funksiyalaridir.

A.V. Kuninning tasnificha frazeologiya, umumiy planda, uchta bo'limdan iborat bo'ladi: idiomalar (xususan frazeologizmlar yoki idiomalar), idiofrazematika (idiofrazematik birliklar yoki ideofrazematizmlar) hamda frazeomatikalar (frazeomatik birliklar yoki idiomatik xususiyatga ega bo'lmagan frazeologizmlar. Frazeologizmlar o'ziga xos tabiatga ega bo'lgan belgilar sifatida tan olinadi. Jumladan, til va nutqda ularning o'ziga xos bo'lgan xususiyatlarini aniqlash, hamda boshqa til birliklari va belgilaridan farqlanuvchi jihatlarini ko'rsatib berish talab etiladi. Mazkur jihatlarini farqlash badiiy tarjima jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbek tilshunosligida taniqli frazeolog olim M.Umarxodjaevning frazeologizmlar tasnifi borasida konsepsiyasi muhim ahamiyat kasb etadi. Olimning 1977 yilda e'lon qilingan "Очерки по современной фразеологии" nomli monografiyasida frazeologik birliklarning so'z va so'z birikmalaridan o'ziga xos o'xshash va farq qiluvchi xususiyatlarini ko'rsatib berish barobarida frazeologik birliklarni ularni farqlovchi belgilariga ko'ra to'rt turga ajratadi:

⁵ Хайдеггер М. Бытие и время. – М.: Республика, 1993. – 447с.

⁶ Qarang. Turdiyeva I. K. Ko'rsatilgan manba.

⁷ Кунин А.В. Курс фразеологии современного английского языка: Учеб. для ин-тов и фак. иностр. яз.– М.: Высш. шк., Дубна: Изд. Центр "Феникс", 1996. – 12с.

“1. So‘z birikmasi va so‘zlar o‘rtasidagi struktur bog‘liqlikning shakllanishi; (FBlarning chegara belgilari);

2. Ularning qo‘llanishi, morfologik va sintaktik, semantik ma‘nolari va leksik tarkibi jihatdan barqarorligi;

3. Ularning komponentlarini to‘liq yoki qisman qayta ko‘rib chiqish (o‘zgaruvchan so‘z birikmalaridan frazeologik birliklarni chegaralash);

4. Semantik qayta ko‘rib chiqish”⁸

Tilshunoslikning bir bo‘limi bo‘lmish frazeologiya- frazeologik birliklarning kategorik belgilarini o‘rganish bo‘lib, ular asosida frazeologik birliklarning asosiy belgilari aniqlanadi va frazeologik birliklarning tilning maxsus birliklari sifatida mohiyati to‘g‘risidagi masala hal qilinadi. Shuningdek, frazeologik birliklarning nutqda ishlash qonuniyatlari va ularning shakllanish jarayonlarini aniqlashdan iborat bo‘ladi, biroq, bitta tadqiqot mavzusi mavjud bo‘lganda va frazeologiyaning ko‘plab savollari batafsil ishlab chiqilganiga qaramay, rus tilining frazeologiyasi hajmida bo‘lgani kabi frazeologik birlik nima ekanligi to‘g‘risida hali ham turli nuqtai nazarlar mavjud.

Somatik frazeologizmlar haqidagi nazariy qarashlarni esa birinchi bo‘lib, F.Vakk⁹ o‘zining nomzodlik dissertasiyasida tahlil qilib bergan. U eston tilida bajarilgan tadqiqot ishida somatik frazeologizmlarni tadqiqdan o‘tkazdi va “somatizm” atamasi mohiyatini keng ko‘lamda tushuntirib bera oldi. Yana bir tilshunos olim V.M.Mokienko¹⁰ o‘zining «Славянская фразеология» asarida slavyan tilidagi FBlni o‘rganib, ayrim somatik frazeologizmlar haqida ham to‘xtalib o‘tdi va aynan shu davrda R.M.Vayntraub rus tilidagi somatik frazeologizmlarni tadqiq etishga bag‘ishlangan ishida nazariy qarashlarini berib o‘tdi.

A.Isaevning “O‘zbek tilida somatik frazeologizmlar” nomli nomzodlik dissertatsiyasi kishining tana a‘zolari nomi (somatizm) bilan bog‘liq iboralarni diaxron va sinxron aspektlarda o‘rganishga bag‘ishlanganligi bilan diqqatga sazovordir. Ishda somatik frazeologizmlarning eng qadimiy, umumturkiy qatlamini aniqlashga harakat qilingan. Olimning ta‘kidlashicha, “Qadimiy turkiy lug‘at” va “Devonu lug‘atit turk” asarida 2330 dan ortiq umumturkiy iboralar mavjud, shundan 249 tasida leksik somatizmlar ishtirok etgan. Bu somatik iboralardan 54 tasi esa hozirgi turkiy tillarda, jumladan o‘zbek tili frazeologik sistemasida saqlanib qolgan. 132 qadimiy, umumturkiy somatik ibora hozirgi turkiy tillarda struktural va semantik jihatdan u yoki bu darajada o‘zgarishlarga uchragan, 63 somatik ibora hozirgi turkiy tillarda umuman qo‘llanilmaydi¹¹.

A. Isaevning hisob-kitoblariga qaraganda, hozirgi o‘zbek tilidagi 98 ta leksik somatizmdan faqat 87 tasi ibora hosil qilish imkoniyatiga ega. “Boldir”, “bo‘ksa”, “dumg‘aza”, “jun”, “oshiq”, “son”, “umurtqa”, “qizil o‘ngach”, “qo‘ymich”, “qanshar” singari somatik so‘zlar iboralar tarkibida uchramaydi¹².

⁸ Умарходжаев М. Очерки по современной фразеологии. Изд: Фан. Тошкент, 1977. – 27с.

⁹ Вакк Ф.О соматической фразеологии в современном эстонском литературном языке: Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. – Таллин, 1964. – 23с.

¹⁰ Мокленко В.М. Славянская фразеология. – М.: Высшая школа, 1980. – 127с.

¹¹ Исаев А., Соматические фразеологизмы узбекского языка: Дисс...канд. фил. наук. - Ташкент, 1976. – 196с

¹² Qarang. Isaev A., Ko‘rsatilgan manba.

Yuqorida fikrlarni ko‘rib chiqqan B. Yo‘ldoshev ushbu nazariyaga o‘zining izlanishlari mahsulidan kelib chiqqan xulosasini kiritadi: “Bizningcha, ibora hosil qiluvchi leksik somatizmlar ro‘yxati uni yanada to‘ldirilishini talab qiladi. Masalan, A. Isaev tadqiqotida mavjud ro‘yxatdan “ilik” somatizmi tushib qolgan. Bu so‘z “suyak ichidagi yog‘simon modda” ma’nosini bildiradi, “iligi to‘q”, “iligi qurimoq”, “iligi puchaymoq”, “iligini o‘ynatmoq” kabi iboralar xuddi ana shu leksik somatizmlardan hosil bo‘lgan. Shuningdek, A. Isaevning ishida “qora ko‘zlar”, “jodu ko‘zlar” singari birikmalar ham iboralar tarkibiga kiritilganki, buni ma’qullash qiyin.” deya o‘zining tanqidiy fikrini bildiradi.

Bobning ikkinchi fasli “*Somatizm atamasi va somatik frazeologik birliklarning til sistemasidagi o‘rni*” deb atalgan. Bir qancha tilshunos olimlar somatik FBlarni uch til asosida qiyosiy aspektda o‘rgandilar. Masalan, 1973 yilda nomzodlik ishini himoya qilgan Yu.A.Dolgoplov¹³ rus, ingliz va nemis tillaridagi somatik FBlarni o‘zaro qiyoslab tahlil etdi. Yoki J.X.Gergokova¹⁴ 2004 yilda himoya qilgan nomzodlik dissertatsiyasida qorachoy-balqar, ingliz va rus tillaridagi “inson” tushunchasining frazeologik konseptuallashuvi jarayonini qiyosiy metod asosida bir-biridan farqlab berdi.

XXI asrning 90 yillarida kelib, lingvokognitologiya, lingvokognitiv yo‘nalish, konsept va u bilan bog‘li qator tushuncha va atamalar paydo bo‘ldi. Natijada somatik frazeologizmlarning kognitiv tahliliga bag‘ishlangan, konsept tushunchasini ifodalovchi inson tana a‘zolari nomlari yakka holda o‘rganila boshlandi, shunday masalalarga bag‘ishlangan dissertatsiyalar himoya qilindi. Kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, bir qator olimlarning ishida aynan “qalb” konseptini ifodalovchi somatik FBlar turli xil usullar orqali o‘rganildi. Masalan, 1996 yilda nomzodlik ishini himoya qilgan S.G.Alekseeva¹⁵ zamonaviy rus tilidagi “yurak” va “qalb” komponentli somatik FBlarni o‘rgangan bo‘lsa, N.N.Kirillova¹⁶ turli tillar frazeologiyasidagi “qalb” leksemasi va konseptini; Yu.D.Tilman¹⁷ esa shoir F.I.Tyutchev¹⁸ she‘riyatida qo‘llangan “qalb” konseptini; Ye.F.Arsenteva¹⁹ va G.R.Safiullina²⁰ lar rus tilidagi «qalb» komponentli somatik FBlarni tadqiq etishga bag‘ishlangan tadqiqotlarni yuzaga keltirishdi. M.Yu.Mixeev²¹ esa o‘z maqolalaridan birida rus tili mifologiyasida “qalb” so‘zining namoyon bo‘lish usullarini ko‘rsatib berdi.

¹³ Долгополов Ю.А. Сопоставительный анализ соматической фразеологии (на материале русского, английского и немецкого языков): дисс. ... к. филол. н. Казан, 1973. – 160с.

¹⁴ Гергокова Ж.Х. Фразеологическая концептуализация понятия «человек» (на матеряле карачаево-балкарского, английского и русского языков): автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Нальчик, 2004. – 20с.

¹⁵ Алексеева С.Г. Фразеологизмы с компонентами «сердце» и «душа» в современном русском языке: автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – М., 1996. – 16с.

¹⁶ Кириллова Н.Н. Компонент фразеологической единицы и слово (на матеряле соматических фразеологизмов современного французского языка) Дисс. ... канд. филол. наук. – Д., 1975. – 163с.

¹⁷ Тильман Ю.Д. “Душа” как базовый культурный концепт в поэзии Ф.И. Тютчева // Фразеология в контексте культуры. – М.: Языки русской культуры, 1999. – 203с.

¹⁸ Тютчев. Ф.И. Полн. собр. Стих отворений. В ступительная статья Н.Я. Берковского; Сост., подгот. Текста и прим рimesh. А.А. Николаева. Л.: Советский писатель, 1962. – 448с.

¹⁹ Арсентьева Е.Ф. Сопоставительный анализ ФЕ, стилистических ориентированных на человека, в русском и английском языках и вопросы создания русско-английского фразеологического словаря : Дис... д-ра филол. наук. – Казан, 1993. – 329с .

²⁰ Сафиуллина Ф.С. Тематический русско – татарский словарь / Ф.С. Сафиуллина, К.Р. Галиуллин. — Казань : Татарское книжное издательство, 1989. — 287с .

²¹ Михеев М.Ю. Отражение слова «душа» в наивной мифологии русского языка (опит размытого описания образной коннотативной семантики). // Фразеология в контексте культуры . – М., 1999. – 230с.

Struktur – semantik model (SSM) asosida FBlar mahsuldor sxema bo'yicha yasaladi. Bunday sxemalardan foydalanib FBlar komponentlarining mazmun sxemasini, ularning sintaktik tuzilish sxemasini, invariant ma'nolarini aniqlash sxemalarini tuzish mumkin.

Frazeologizmlarni har tomonlama tahlil qilish, ularning tuzilishini o'rganish usullarini aniqlashga bo'lgan urinishlar XIX asrdayoq boshlangan edi (F.I.Buslaev²², I.M.Snegirov²³, V.I.Dal²⁴).

Tadqiqotning ikkinchi bobini "**Ingliz va o'zbek tillarida bir necha somatik komponentli frazeologik birliklar semantikasi va tarkibi**" deb nomlangan 3 bo'limlardan – Ingliz va o'zbek tillarida bir va undan ortiq somatik komponentli frazeologik birliklar va ularning semantikasini yuzaga keltiruvchi omillar; Ingliz va o'zbek tillarida bir va bir necha somatik komponentli FBlar, maqol va matallar strukturasi va semantikasi; Chog'ishtirilayotgan tillarda bir necha somatik komponentli FBlar va paremiyalarning uslubiy jihatlaridir.

Bir komponentli somatik frazeologik birliklar morfologik jihatdan asosan, **ot** qolipidagi frazemalar orqali ko'p qo'llanadi:

Onions, smoke and women bring tears to your eyes. Eyes ning denotativ ma'nosi *ko'z ko'rish a'zosi bo'lib*, otning ko'plik shaklida ishlatilgan;

Ko'z leksemasida konnotativ ma'noni ifodalovchi frazeologik birliklardan ingliz va o'zbek maqollarini keltirishimiz mumkin: *Away from the eye, away from the mind*; *Mehr ko'zda*; *O'zi yo'qning ko'zi yo'q*.

Ikki somatik komponentli frazeologik birliklar asosan morfologik jihatdan **ot+ot** qolipidagi frazemalar orqali ko'p qo'llanadi: Masalan, *qol –oyoq, ko'z-quloq; head-ear, eye-eye, head-foot*;

O'zbek tilida: *Ko'z-quloq*²⁵:- *ko'z-quloq bo'lib turmoq; poylab turmoq* O'rmonjon to'satdan kelib qoldi. Uning kelganini na Qurbon ota payqadi, na *ko'z-quloq bo'lib turgan Sidiqjon* (A.Qahhor, Qo'shchinor chiroqlari.) Akam Qobil "darvozaga ko'z-quloq bo'lib turing" deb eshikka chiqarib yubordi (H.G'ulom, Mash'al.) *Ko'z-quloqning poylamoq ma'nosi, ko'z ot+ quloq ot va ot kesim tarkibidagi bog'lama vazifasidagi bo'lmoq bilan birikuvini orqali yuzaga kelmoqda.*

Ingliz tilida: *I have the eyes of a hawk and the ears of a fox* gapida insonga xos ko'zi o'tkirlik lochinga, qulog'i dinglik tulkiga qiyoslash orqali ifodalanmoqda. Bu ma'nolar *have +N+prep+N+conj+N+prep+N* qolipidagi gap orqali yuzaga kelgan.

O'zbek va ingliz tillarida berilgan misollarning ikkisida ham *ko'z va quloq* leksemalarining birikuvini va denotativ ma'nosidan bir guruh frazemalar shakllangan.

O'zbek tilida berilgan *ko'z-quloq bo'lmoq* somatik frazeologik birligi o'ziga xos metaforadir, uni semantik tahlili esa quyidagicha: so'zma-so'z ma'nosiga kelsak, ushbu frazeologik birlik fiziologik jihatdan imkonsizdir, chunki insonning

²² Буслаев Ф.И. Русские пословицы поговорки, собранные и объяснение. – М.: Русский язык, 1954. — 176с.

²³ Снегирев И.М. Русские народные пословицы и притчи / РАН;Институт русской литературы . — М.: Индрик, 1999. — 624с.

²⁴ Даль В.И. Толковый словарь живого великорусского языка: в 4 т. М.: Русский язык, 1980. – 627с .

²⁵ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли / А. Мадвалиев таҳр ост. – Тошкент. “Ўзбекистон нашриёти” давлат унитар корхонаси, 2020, К харфи. – 446 б.

ko'zi va qulog'i boshqa kimningdir ko'zi va qulog'i bo'la olmaydi. Mataforik ma'nosiga kelsak, "*kimningdir ko'zi va qulog'i bo'lish*", ya'ni ularning xabarlarini yetkazish, ularning qilmishlarini kuzatib borish va ularga xabar berish degan ma'noni anglatadi.

Ushbu soamatik frazeologik birlikning tarkibiy qismlari haqida gapiradigan bo'lsak, *ko'z ko'rish a'zosi bo'lib*, mazkur frazeologik birlikning ma'nosi "ko'rish", "kuzatish" degan ma'noni bildiradi. *Quloq* leksemasi esa eshitish a'zosi bo'lib, somatik iborada "eshituvchi", "xabar olish" degan ma'noni bildiradi. *Bo'lmoq* leksemasi esa fe'l bo'lib, iborada "vaziyfatni o'z zimmasiga olish" degan ma'noni bildiradi.

Ushbu somatik frazeologik birlikning umumiy ma'nosi "*kimningdir xabarlarini yetkazish*", "ularning qilmishlarini kuzatib borish" va "ularga xabar berish" degan ma'noni anglatadi. Bu ibora odamning boshqasiga vafq qilishi, uning manfaatlari uchun harakat qilishi va uning hayoti to'g'risida xabarlar berishini bildiradi.

Ushbu somatik somatik frazemaning konteksti haqida gapiradigan bo'lsak, odatda kimdir boshqasining ishlariga nazorat qilishni yoki uning xabarlarini yetkazishni o'z zimmasiga olganda ishlatiladi. Shuningdek, bu ibora "*ishonchli odam*", "*yo'ldosh*", "*yordamchi*" degan ma'noda ham ishlatilishi mumkin. Masalan, "U do'stinning ko'z-qulog'i bo'lib yurdi" degan gapda do'stning ishonchli yordamchisi ekanligi ta'kidlanadi.

Umuman olganda, "*ko'z-quloq bo'lmoq*" iborasi "kimningdir xabarlarini yetkazish", "ularning qilmishlarini kuzatib borish" va "ularga xabar berish" degan ma'noni anglatadi. Bu ibora odatda kimdir boshqasining ishlariga nazorat qilishni yoki uning xabarlarini yetkazishni o'z zimmasiga olganda ishlatiladi.

Ingliz tilida ham "*ko'z-quloq bo'lmoq*" somatik frazeologik birligiga ma'nodosh ingliz tilida bir nechta iboralar bor, ular quyidagilar:

"*To be someone's eyes and ears*" - "ko'z-quloq bo'lmoq"ning eng to'g'ri ma'nosini aks ettiradi. Bu ibora biror kishining ko'z va qulog'i bo'lib, uning xabarlarini yetkazish va uning qilmishlarini kuzatib borishni anglatadi.

Yana bir ingliz tilida berilgan "*to keep an eye on someone/something*" - bu ibora "kimgadir yoki biror narsaga nazorat qilish", "kuzatish" degan ma'noni anglatadi. "*To be someone's lookout*" - bu somatik frazeologik birlik ham "kimningdir xabarini yetkazish", "uning xavfsizligiga g'amxo'rlik qilish" degan ma'noni anglatadi. "*To keep someone informed*" somatik frazemasiga kelsak, "kimgadir xabarlarini yetkazish" degan ma'noni anglatadi.

Masalan, "*U mening ko'z-qulog'im bo'lib yurdi*" degan gapni ingliz tiliga "He was my eyes and ears" deb tarjima qilish mumkin.

Yana bir ingliz maqoli: *What the eye does not admire the heart does not desire*²⁶ bo'lib, uning ma'nosi "Ko'z nimaniki ko'rib, huzur qilmas ekan, ko'ngil uyg'onmas" dir. Boshqa so'zlar bilan aytganda, "Biron narsani ko'rmay, bilmay turib aytganda, biron narsa qilishga istak, xohish uyg'onmaydi."- ushbu maqol to'ldiruvchi ergash gap shakliga ega : What+N_s+V_{neg}+N_s+V_{neg}.

²⁶ Source: <https://proverbicals.com/eyes-proverbs>

Ingliz tilidagi ko‘z va quloq somatizmli yana bir maqol e‘tiborimizni tortdi. *The eyes believe themselves; the ears believe other people* maqoli *eyes, ears* va *believe* ishtirokida “Ko‘zlar o‘ziga, quloqlar odamlarga ishonadi” ma‘nosini ifoda etmoqda.

Uch komponentli somatik frazeologizmlar. Manbalarda uch komponentli frazeologik birliklar nisbatan kam qo‘llangan bo‘lib, ularning aksariyati **ot+ot+ot** qolipida ekanligini kuzatdik. Asarlarda uch komponentli somatik frazeologizmlar ham nisbatan ko‘proq qo‘llangan.

Masalan, nemis xalqi maqolini misol qilib keltiradigan bo‘lsak: *If you don’t want to be deceived, you must have as many eyes as hairs on the head*²⁷. Keltirilgan maqolni strukturasi **eyes** (ot, ko‘plik) + **hairs** (ot, ko‘plik)+**head**(ot) . **Tarjimai:** Agar aldanib qolishni istamasang, boshingda qancha soch tolasi bo‘lsa, shuncha ko‘zing ham bo‘lishi kerak. Keltirilgan maqol bizning o‘zbek milliy matallarimizga o‘xshab ketishini kuzatdik. Matal quyidagicha ta‘riflanadi: Agar tinch yashashni hohlasang, **ko‘zingni ko‘r, qulog‘ingni kar** qilib olishing kerak. Nemis xalqi maqoli uch komponentli somatik frazeologik birlikda ifodalangan bo‘lsa, o‘zbek xalqi matali ikki komponentli somatik frazeologik birliklar orqali berilgan. Maqollarning struktural ko‘rinishi har hil bo‘lgani bilan semantik jihatdan ma‘nolari bir-biriga o‘xshash.

Kuninning Ingliz va rus tillarining frazeologik lug‘atida quyidagi misollardan foydalanamiz: “Just at look at that!” she said. “I knew it. I knew it was going to happen the minute my back was turned, and I didn’t have to **have eyes in the back of my head** to see it, neither.” (E. Caldwell, *Jenny by Nature*, ch. XV) Keltirilgan misolda biz birdaniga uch komponentli somatik frazeologik birlikni ishlatilganligini ko‘rishimiz mumkin. Struktural tuzilishi esa quyidagicha: **eyes** (ot ko‘plik shakli)+ **back**(ot)+ **head** (ot)²⁸;

Ingliz tilidagi Collin’s dictionary lug‘atida ikki komponentli somatik frazeologik birliklarini qo‘llanilishini ham kuzatdik. Konnotativ ko‘rinishda berilgan *someone would give their eye teeth for something*²⁹ somatik frazeologik birligiga ingliz tilida denotative izohini keltirib o‘tsak, **said to mean that someone wants something very much, and that they would do almost anything to get it**) o‘zbek tilida esa denotative ma‘no *biror narsani qilish uchun qattiq tirishmoq* ko‘rinishda tog‘ri kelarkan. **Ko‘z** leksemasi bilan **tish** leksemasining birikuvidan yasalgan bo‘lib, **Eye** (ot)+ **teeth**(ot, ko‘plik) struktural ko‘rinishiga egadir.

Belgiyalik olim Audrey Hepburnning ham naqlarida ham ikki somatik komponentlifrazeolgik birliklarni ham ko‘rishimiz mumkin. *Your heart just breaks, that's all. But you can't judge or point fingers. You just have to be lucky enough to find someone who appreciates you*³⁰. Seni yuraging ozorlanyapti, xolos. Lekin uni barmoqlaring bilan ko‘rsatib ayblama. Faqatgina siz o‘zingizni qadrlay oladigan insonni topishingiz kerak. Naql *yurak* leksemasi bilan *barmoq* leksemasidan iborat.

²⁷ <https://proverbicals.com/deception>

²⁸ Кунин Александр. Англо-русский фразеологический словарь. – М.: Просвещение/Дрофа, 2007. – 203с.

²⁹ <https://www.collinsdictionary.com/dictionary>

³⁰ <https://www.wisesayings.com/finger-quotes/>

Maqol, matal va idiomalarning bir-biridan farqlanishini quyidagi jadvaldan ham bilish mumkin.

Maqol	Matal	Idioma
Brothers and sisters are as close as hands and feet Besh barmoqning birini tishlasang, bari og'rir	If we could but paint with the hand what we see with the eye . Ko'z ko'rganni qo'l qilar	To know something (somebody) like the palm of one's hand . Biror narsani (kishini) besh barmoqday bilmoq;
A gentle hand may lead even an elephant by a single hair Yaxshi gap bilan ilon inidan chiqar	Give me the ready hand rather than the ready tongue Ishni tilda emas amalda(qo'lda) ko'rsat	To tie smb. hand and foot-oyoq qo'li bilan bog'langan bo'lmoq
The eyes see better for being washed by them. Ko'zlar qancha namlansa, shuncha ularning nuri oydinlashadi.	One's eyes are what one is; one's mouth is what one becomes Ko'z ko'rganni, til aytar	To bind smb. hand and foot-oyoq qo'li bilan bog'langan bo'lmoq
Choose a friend with the eyes of an old man, and a horse with the eyes of a young one	The eye cannot rise above the eyebrow hammaning o'z o'zni bor	To turn a blind eye . Biror narsaga ko'zini yummoq

Frazeologizmlar (maqol, matal va idiomalar) ning ma'nosi kontekst ichida ochiladi. Lekin ayrim holatlarda ikki yoki undan ortiq tillarda shaklan, ham mazmunan mos ekvivalentlar kuzatiladi:

Can't see hand in front of face. – Burnini tagidagina ko'ra olmaslik

A fair face may hide a foul heart. – Chiroyli yuzni yuragi bevafo bo'ladi

The face is the index of the heart. – Yuz ruhning ko'zgidir.

Tadqiqotning **“Bir necha somatik komponentli frazeologik birliklarning lingvomadaniy va lingvopragmatik tahlili”** deb nomlangan uchunchi bobi 3 bo'limlardan iborat bo'lib, ular: *Bir necha somatik komponentli frazeologik birliklar va paremiyalarning lingvomadaniy xususiyatlari; Chog'ishtirilayotgan tillarda bir necha somatik komponentli frazeologizmlarning lingvopragmatik tahlili; Bir necha somatik komponentli FBlar lingvomadaniy xususiyatlarini tarjima asarlarida qayta yaratish* kabi nomlanadi.

Frazeologizmlar biror narsa – hodisani atash, nomlash vazifasiningina bajarmaydi, balki shu predmet yoki hodisani aniqlashtirib, ularni emotsional va obrazli tarzda baholaydi. Ayni shu jihati bilan ham ular lingvokulturologiya fani uchun ahamiyatli hisoblanadi. Frazeologik iboralar zamirida ma'lum obraz, konkret hodisa, predmet tasavvuri yotadi. Bunday obrazlilik frazeologizmlarning uslubiy imkoniyatlarini oshiradi, ularni tilning kuchli ifoda vositalaridan biriga aylantiradi. Frazeologik birlik yoki frazema, ibora kelib chiqish jihatidan juda qadimiy bo'lsa-da, frazeologiya fani tarixi bir necha yuz yilni o'z ichiga oladi.

Frazeologizmlar xalq boyligi bo'lganligi sababli ham uning manbalari u yoki bu xalq yashayotgan joyining tabiati, iqtisodiy tuzumi, tarixi, madaniyati, hayot tarzi, og'zaki ijodiyoti, badiiy adabiyoti, san'ati, fani, urf-odati kabilar bilan chambarchas bog'lanadi. O'zbek tili leksikasida mavjud frazemalarning deyarli hammasi lingvokulturologik xususiyatga ega. Chunki, masalan, *“Qo'li ochiq”*

frazemasi saxiy ma'nosida qo'llanuvchi belgi bildiruvchi frazema bo'lib, aynan tanti va mehmondo'st xalqimizning vakillariga nisbatan ishlatiladi.

